

SAIDMALIK Maryam Ulug'bek qizi
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Matnshunoslik va adabiy manbashunosli yo'nalishi
2-kurs magistranti
maryammaktoum2002@gmail.com

KA'B IBN ZUHAYR QASIDALARINING JOHILIYAT VA ISLOM DAVRIDA TUTGAN O'RNI

ЗНАЧЕНИЕ КАСИД КА'БА ИБН ЗУХАЙРА В ЭПОХИ ДЖАХИЛИИ И ИСЛАМА

THE ROLE OF KA'B IBN ZUHAYR'S QASIDAS DURING THE JAHILIYYAH AND ISLAMIC ERAS

Annotatsiya: ushbu maqolada K'ab ibn Zuhayr ibn Abi Sulayma hayoti va ijodi, u tomonidan yozilgan "Banat Suad" qasidasining adabiyot tarixdagi ahamiyati yoritib berilgan. Qasida oliyjanob histuyg'ular va to'g'ri g'oyalarni ifodalovchi, yuqori va mukammal san'at shaklida yaratilgan bo'lib, ma'nolar, muammolar va shakl jihatidan abadiy va mukammal bir asar sifatida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, maqolada uning ajdodlari, "Lamiyya" qasidasi va "Ikki asr shoiri" deb nom olgan Ka'b ibn Zuhayrning johiliyat va islom davrida yozgan qasidalari o'rtasidagi kichik bir farq ochib berilgan.

Kalit so'zlar: "Qasidai Burda", "Banat Suad", "Lamiyya", ajdodlar shajarasi, sohabalar, G'atafon qabilasi, muallaqotlar, abbosiy halifa, mo'g'ullar, sharqshunos Rene Basset, johiliyat davri, islom davri, "Baqara" surasi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются жизнь и творчество Ка'ба ибн Зухайра ибн Аби Сулеймы, а также историческое значение его поэмы «Банат Суад». Поэма является произведением, в котором выражены благородные чувства и правильные идеи, созданная в высокой и совершенной художественной форме, став настоящим бессмертным произведением как с точки зрения содержания, так и формы. Кроме того, в статье освещены различия между поэмами Ка'ба ибн Зухайра, написанными в период джахилии и ислама, а также его родословная, «Ламийя», и «Поэт двух эпох».

Ключевые слова: «Касида Бурда», «Банат Суад», «Ламийя», родословная, сподвижники, племя Гатафан, муаллякаты, аббасидский халиф, монголы, востоковед Рене Бассе, период джахилии, период ислама, сура «Бакара».

Annotation: This article discusses the life and work of Ka'b ibn Zuhayr ibn Abi Sulayma, focusing on the historical significance of his poem «Banat Suad.» The poem is created in a high and perfect artistic form, expressing noble feelings and correct ideas, becoming an eternal and flawless work in terms of meaning, issues, and form. Additionally, the article highlights the difference between the poems Ka'b ibn Zuhayr wrote during the Jahiliyyah and the Islamic period, shedding light on his ancestors, the "Lamiyya" poem, and Ka'b ibn Zuhayr, who is known as the «Poet of Two Eras.»

Keywords: «Qasida Burda», «Banat Suad», «Lamiyya», ancestral tree, companions, Ghatafan tribe, Mu'allaqat, Abbasid caliph, Mongols, orientalist René Basset, Jahiliyyah period, Islamic period, Surah Baqarah.

KIRISH

Ka'b ibn Zuhayr – islomgacha va islom davrida yashagan musulmon arab shoiri. U islomgacha bo'lgan davrda mashhur arab shoirlaridan biri hisoblangan va islom kirib kelgandan so'ng Muhammad (s.a.v) ni hajv va madh qilgan. Ka'b ibn Zuhayr musulmon bo'lganidan so'ng, tinchlik so'rab Rasulullohga keladi va mashhur qasidasi "Bānat Su'ād fa-qalbī al-yawma matbūl"ni o'qib beradi. Shundan so'ng, Rasululloh unga o'z yopinchig'larini hadiya qiladilar. Shu sababli, uning ushbu qasidasi "Qasidai burda" deb ham nomlanadi. Ka'b ibn Zuhayr she'riyat sohasida eng mashhur shoirlardan biridir. Uning otasi Zuhayr ibn Abu Sulma, akasi Bujayr, o'g'li Uqba va nabirasi Avvom ham shoir bo'lishgan. Uning mashhur "Lamiyya" qasidasi ham ko'p marta boshqa shoirlar tomonidan takrorlangan, qisqartirilgan va arab tilidan boshqa tillarga tarjima qilingan. Ka'b ibn Zuhayr ham she'riyatni akasi Bujayr kabi otasidan o'rgangan. Otasi Zuhayr ularni she'r yodlashga o'rgatgan. Bir rivoyatda aytilishicha, Zuhayr Ka'bni cho'lga olib borar va unga bir bayt yoki satr aytib, javobiga huddi shunga o'xshash she'r yozishini talab qilardi. Bu usul bilan uni mashq qildirgan va o'rgatgan. Islomdan oldingi

davrda Ka'b shoir sifatida hatto al-Hutay'a'dan ham mashhurroq bo'lgan. Ka'b ibn Zuhayr ibn Rabi'a, Abu Sulma laqabi bilan tanilgan. U Riyoh ibn Qutr al-Haris ibn Mazin ibn Sa'labah ibn Thavr ibn Hazmah ibn Li'am ibn Uthman ibn Muzaynah avlodidan. Unga **"Abu al-Mudarrif"** laqabi ham berilgan. U islomgacha va islom davrini boshdan kechirgan shoirlardan biri. Ka'b o'z davrining taniqli shoirlari orasida yuqori adabiy va she'riy mavqega ega bo'lgan. U she'riyat sohasida mashhur oiladan chiqqan bo'lib, iste'dodini otasi orqali meros qilib olgan. Uning she'riy qobiliyati juda yoshligidanoq namoyon bo'lgan. Ibn Qutayba ad-Dinavariy uni shunday ta'riflagan: "Ka'b ulug' va yetuk shoir edi".

ASOSIY QISM

Ka'bning onasi Abdulloh ibn G'atafon qabilasidan bo'lgan ayol bo'lib, ismi Kabsha binti Ammor ibn Adiy ibn Suhaym edi [1:226]. U Zuhayrning barcha farzandlarining onasi bo'lgan. Zuhayr avvalgi rafiqasidan farzand ko'rmaganligi sababli Kabsha bilan nikohlangan edi. Ammo bu qaror birinchi rafiqasining g'ashiga tegadi va u Zuhayrni ranjitib, xafa qilib qo'yaladi. Shu sababli Zuhayr undan ajrashadi, biroq keyinchalik afsuslanadi [1:227]. Ka'b ibn Zuhayr islomdan avvalgi davrda tug'ilgan, ammo uning tug'ilgan sanasi haqida aniq ma'lumotlar kitoblarida keltirilmagan. U Muzayna qabilasiga mansub bo'lib, bu qabila Mazar qabilalaridan biri hisoblanadi. Ushbu baytlar Ka'b ibn Zuhayrning "Qasidai Burda" qasidasidan:

هم الأصل مني حيث كنت و أنني
من المزيين المصرفين بالكرم

Baytning sharhida yozilishicha: Ka'b ko'proq bolaligini onasi qabilasi tomonlarda o'tkazgan, ammo u o'z nasabi tegishli bo'lgan qabilaga hurmati baland ekanligini shu bayti orqali izhor qilgan. Otasi Kabsha bilan turmush qurganidan so'ng, u G'atafon qabilasi hududida yashay boshladi. Shu qadar uzoq vaqt yashadiki, ba'zi tarixchilar Ka'bni G'atafonlik deb hisoblashgan. Ka'b G'atafon qabilasi orasida ular bilan birdamlikda hayot kechirgan, ularning urush va tinchlikdagi ishlari bilan yaqindan

shug'ullangan [2:18]. Rivoyatchilarning bir fikrga ko'ra: johiliyat davrida hech bir mashhur shoir oilasi Zuhayr oilasidagi kabi she'riyatni uzviy davom ettirmagan. Uning otasi Zuhayr ibn Abu Sulma johiliyat davrining mashhur shoirlaridan biri bo'lib, eng mashhur **Muallaqat**lardan birining muallifi edi. U she'riyat san'atini o'g'illari Ka'b va akasi Bujayrga o'rgatgan. Ka'bning bobosi Abu Sulma ham taniqli shoir edi. Otasining tog'asi Bashoma ibn al-G'adir ham shoir bo'lgan, shuningdek, ammalari Xansa va Sulma ham she'rlar bitishgan. Amakivachchalari Tamodar va uning akasi Saxr, qizi Sulmaning o'g'illari Al-Utban va Qariz, o'g'li Uqba va nabirasi Al-'Avvam ibn Uqba – barchasi shoir bo'lgan [1:227].

Ka'b ibn Zuhayrning she'riy muhiti uning iste'dodini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. U yoshligidanoq she'r yozishni boshlagan. Oilada katta o'g'il bo'lganligi bois unga ko'proq e'tibor qaratilgan. Zuhayr ba'zida Ka'bni she'r yozishdan qaytarib turgan, bu esa uning she'riyatdagi mahoratini mukammallashtirish va zaif she'rlar yozmasligini ta'minlash maqsadida qilingan. Otasi uning she'riy didini doimo shakllantirib, rivojlantirgan.

Ka'bning islomni qabul qilishi haqida mashhur bir hikoya mavjud. Uni o'z akasi Bujayr islomdan qaytargan. Rasululloh (s.a.v) bu haqida eshitadilar va Ka'bni islomga da'vat qiladilar va uning akasiga ham islomni qabul qilishlari haqida ham maslahat beradilar. Ka'b, oxir-oqibat, hijriy 7-yilda musulmon bo'ladi [3][4:385]. Rasululloh Ka'bga "Qasidai Burda" qasidasiga o'zlarining muborak burdalarini (yopinchig'ini) sovg'a qilganlar. Keyinchalik, Muoviya uni 30 ming dirhamga sotib olgan, ba'zi rivoyatlarga ko'ra esa, Al-Attobiy 20 ming dirhamga sotib olgan. Ushbu burda xalifalar tomonidan saqlangan va ular uni juma va bayram kunlarida baraka uchun kiyib yurishgan. Bag'dod xazinasiga haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, Nabaviy burda Abbosiy xalifasi Al-Mansur davrida 40 ming dirhamga sotilgan va u Abbosiylar xazinasida mo'g'ullar kelguniga qadar saqlangan. Ka'bning Lamiyat al-Ka'b (mashhur qasida) she'riga ko'plab nazira (javob she'rlar) yozilgan, uni boshqa tillarga, jumladan italyan tiliga tarjima qilishgan. Sharqshunos René Basset ushbu she'rni fransuz tiliga tarjima qilib, uni yaxshi izohlangan holda

nashr etgan. Shuningdek, tarjimaga Ka'bnings biografiyasini ham kiritgan. [5:65]

Darhaqiqat, Ka'b she'riyat maydonida mustahkam o'ringa ega edi va uning shon-shuhrati keng tarqalgandi. Hatto mashhur shoir Hutay'a undan o'z she'rida uning nomini eslab o'tishni iltimos qilib, shunday degan:

فمن القواعد في شأنها من يحوكها
إذا ما مضى كعب وفوز جرو
كفيتك لا تلقي من الناسي واحدا
تتخل منها مثل ما يتتخل

Izoh: Sizlar, bu xonadon ahli, mening sizlarga sadoqatimni va doimiy aloqamni yaxshi bilasizlar. Ey Ka'b, agar she'r yozsangiz, o'zingizni eslab, keyin meni ham eslab o'tsangiz.

Bunga javoban Ka'b ibn Zuhayr ushbu baytlarni yozgan:

فلمست كحسان الحسام ابن ثابت
ولست كشماخ ولا كالمخبل

Ka'b ibn Zuhayr Hutay'ani baytida "Mazrid Axush Shamah" deb xitob qilgan. [5:70]

Ba'zi adabiy-ilmiy kitoblarda johiliyat davrining she'riy mavzulari sakkizta deb qayd etilgan: hamasa (jasorat – bu urush mavzusidagi she'riyat bo'lib, jangga undash, qasos olishga chaqirish, qabila o'g'lonlarining jasorati va kuch-qudrati bilan faxrlanishni o'z ichiga oladi), maroya (madhiya – kishining o'zini solih inson sifatida ko'rsatishi yoki odamlarga o'zining yaxshi xislatlarini namoyish etish orqali ularning qalbida o'ringa ega bo'lish istagini ifodalaydi), nasib (ishqiy tuyg'ular – bu ayollarning go'zalliklari va jismoniy maftunkorliklarini tasvirlash, shuningdek, ularning fazilatlarini va axloqlarini madh etishdir), hijoya (tanqid – maqtovg'a zid bo'lib, shoir o'zining boshqa bir shaxsga nisbatan nafratini va qoniqmasligini ifodalash uchun yozilgan she'rlar janridir), hikmat (donolik – hayot va o'limga bo'lgan qarashlarni she'riy yo'l bilan umumlashtirib, mulohaza va tafakkurni aks ettirishdir), madiha (maqtoy – bu insonlarning kibr va qahramonlik sifatlarini, masalan, saxovat, jasorat, va'daga vafo qilish, qo'shnini himoya qilish va yordam ko'rsatish kabi fazilatlarini madh

qilish mavzusidagi she'riyatdir), sifatlar tasviri (ko'pincha shoirlarning asarlarida uchrab turadigan janr bo'lib, asosan sahro muhitini va uning tabiatini tasvirlash bilan cheklanadi. Bu tinch tabiatni yoki harakatdagi tabiatni tasvirlash bo'lishi mumkin) va riso (marsiya, motam she'riyati – urushlarning ko'pligi tufayli yuzaga kelgan marsiya mavzusi. Marsiyada jang maydonlarida halok bo'lgan kishilar yoki yetakchi va zodagonlarni xotirlab, ularning yutuqlarini sanash, ulug'lash va fazilatlarini ta'riflash, shuningdek, qayg'u va yig'ini ifodalash orqali bayon etiladi) [6:14].

Johiliyat davrida Qur'on she'riyatga hech qanday ta'sir ko'rsatmagan. Ammo Islom davriga kelib, Qur'onning she'riyatga ta'siri kuchli bo'lib, bu ta'sir shoirlarning ruhiy holatiga qarab kuchaygan yoki susaygan. Ular orasida Islomni chuqur anglaganlar ham, uni yuragiga to'liq singdirmaganlar ham bor edi. Shunga qaramay, barchalari Qur'onning ta'sir soyasida ijod qilishgan.

Ushbu qasida Ka'bnings johiliyat davrida yozgan qasidalaridan biri:

قال كعب:
إن يدركك موت أو مشيب
فقبلك مات أقوام وشائبوا
تلتبنا وقرطنا رجلاً دُعوا
وإذا الأنام دُعوا أجابوا

يدرك: يبلغ، مشيب المخلوط الممزوج أو العاجز، أقوام: جمع من قوم، شائبوا: من كافي في سن الشباب، تلبت: توقف، قرط: أهمل، يدرك: يبلغ، الأنام: بشر.

Izoh: Agar inson o'zining zaiflashganini yoki o'lim holatiga yetib kelganini bilsa, bilsinki, undan oldin ham qavmlar shu holatni boshdan kechirishgan. Shuning uchun, inson bu holatga tayyor bo'lishi kerak, undan muvaffaqiyatli o'tish uchun. Ushbu she'r orqali Ka'b o'limni inkor etmaydi, har bir inson o'limni kutadi.

Ushbu bayt Ka'b ibn Zuhayrning islom dinini qabul qilganidan keyin yozilgan qasidalaridan biri deya ta'bir qilinadi:

لَعْمُرُكَ لَوْلَا رَحْمَةُ اللَّهِ إِنِّي
الأمطر بعد ما يريد ليزفعا
فلو كنت حوتاً ركض الماء فوقه
ولو كنت يربوعاً سرى ثم قصعا

Ka'b ibn Zuhayrning she'rida, o'zining hayotiy tajribasini va muvaffaqiyatga erishish yo'lidagi ajralmas vositalarni tasvirlaydi. She'ridagi «La'umruka lawla rahmatullahi innani» (Agar Allohning rahmati bo'lmas edi) iborasi, uning islomga bo'lgan e'tiqodini va rahmatga bo'lgan ehtiyojini ta'kidlaydi. Bu ibora orqali u Allohning rahmatining har bir inson uchun muhimligini va hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun faqatgina shaxsiy sa'y-harakatlarning yetarli bo'lmasligini, balki Allohning rahmatiga ham tayanish kerakligini ifodalaydi. Bu shuningdek, Qur'onda keltirilgan "duo qiling, Men sizlarga javob beraman" (Baqara surasi, 60-oyat) degan oyatga ishora qiladi.

XULOSA

Ka'b ibn Zuhayrning qasidalarida johiliyat va Islom davri o'rtasidagi o'ziga xos madaniy va ma'naviy o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi. Johiliyat davrida uning ijodi asosan dunyoviy ehtirolar, qabila sha'ni va urf-odatlar bilan sug'orilgan bo'lsa, Islomni qabul qilgach, bu she'riyat ko'proq ruhiy poklanish, tavba va vafodorlik kabi mavzular bilan boyidi.

"Qasidai Burda" qasidasi esa uning ijodiy va ma'naviy taraqqiyotini aks ettiruvchi asar sifatida alohida o'rin tutadi. Ushbu qasida nafaqat Ka'bning Muhammad (s.a.v.)ga bo'lgan hurmatini va uning rahmatiga bo'lgan umidini ifoda qiladi, balki arab adabiyotida ham diniy she'riyatning yetuk namunasiga aylandi. Bu asar orqali Ka'b nafaqat o'zining Islomga sadoqatini ko'rsatgan, balki kelajak avlodlarga ma'naviy meros qoldirgan.

Ka'b ibn Zuhayr qasidalarining o'rganilishi arab adabiyoti va Islom madaniyatidagi murakkab o'tish davrlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Uning ijodida shoirning shaxsiy kechinmalari bilan jamiyatda yuz bergan ulkan o'zgarishlar mahorat bilan uyg'unlashgan. Shu sababli, Ka'b ibn Zuhayrning qasidalarini o'rganish faqat adabiy emas, balki tarixiy va madaniy jihatdan ham katta qimmatga ega.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xayriddin al-Zirikli. Al-a'lom. – J:5. – Bayrut: Dor al-a'lam lil-malayin, 2002. – 336 b.
2. Abu Muhammad Jamoliddin Abdulloh ibn Hishom al-Ansoriy. Sharh qasida Baanat Suad. // Muhaqqiq:

Husayn Burmal. –Malayziya, 2018. – 400 b.

3. Ibn Rashi al-Qoyruvoni. Kitab al-Umda. – Bayrut, 1907.
4. Ibn Qotiba. Ash-shi'r va ash-Shua'rou. – Qohira: Dor al-maorif, 1950. – 1050 b.
5. Ali Fav. Devoni Ka'b ibn Zuhayr. – Bayrut, 1997. – 109 b.
6. Anisa Afifa. Ka'b ibn Zuhayrning johiliyat va islom davridagi she'rlari. // Magistr.diss. – Indoneziya, 2015. – 79 b.